

“ASRNI QARITGAN KUN” ROMANIDA OBRAZLAR MA’NAVIY-RUHIY OLAMINING QIYOSIY TAHLILI

Abdugapparova Shodiyona Adashali qizi

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Shodiyona1993@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13892713>

Chingiz Aytmatov o‘zining ilk romani “Asrni qaritgan kun” romani bilan adabiyot ixlosmandlarining qalbidan chuqurroq joy olishga muvaffaq bo‘ldi. Roman avval rus tilida yozilib (“Bo‘ronli bekat”, 1980)¹, keyin qirg‘iz tiliga tarjima qilingan. Shundan so‘ng adib ijodida roman pallasi boshlandi(Suvon Meli) va “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi”, “Mangu qalliq” kabi romanlari dunyo yuzini ko‘rdi. Romanda qalamga olingan inson va tabiat, jamiyat va inson, insoniy qadriyatlar va zamonaviy talqinlar o‘zaro bog‘lanib, bir-biriga chirmashib ketgan, janr jihatidan juda murakkab ushbu asar yozuvchiga ayrica bir muvaffaqiyat olib kelganligini ta’kidlash joiz.

“Asrni qaritgan kun” romani o‘zining badiiy-falsafiy mazmuni bilan dunyo kitobxonlarini lol qoldirdi. Shu bilan birga muallif, inson ma’naviy -ruhiy dunyosining yashirin sir-asrorlarini yaxshi anglab, o‘z qahramonlarining axloqiy pokligi, ma’naviy barkamolligini mahorat bilan ochib bergan. Asardagi bosh obraz Edigey Jongeldin muallif ta’kidlaganidek, “zaminni yelkasida tutib turganlardan biri”². U o‘zining boy ma’naviy dunyosi, mehnatsevarligi, adolatparvarligi, yaqinlarga sadoqati, vijdonliligi bilan boshqa obrazlardan tubdan farq qiladi. Muallif Edigey xarakterini shu qadar jo‘n va oddiy tasvirlashga intiladiki, unda na bo‘rttirish, na sun‘iy ideallashtirish jihatlari bor. Uning xarakteri yillar davomida unga yelkadosh bo‘lgan, hayotning qancha qiyinchiliklarini birgalikda yengib o‘tgan sirdosh do‘sti Kazangapni dafn etishdagi bir kunlik voqea-hodisalar asnosida uning xotirasida qad rostlagan o‘tmish kechmishlari orqali o‘quvchi ko‘z oldida gavdalanadi.

Asarda Edigey va Kazangapning mehnatsevarlikdagi qahramonlik yillari, Nayman ona va Jo‘lomon, Raymali va Begimay, Abutalib Quttiboyev va ularning oilasi taqdiri fojiali va dramatik, Sobitjon hayotida kulgili pafos bor.

Roman syujetining markazida O‘rta Osiyo cho‘lida joylashgan kichik temir yo‘l vokzali joylashgan. Bu yerda mahalliy aholi tinch va osoyishta hayot kechiradi. Tashqi dunyo bilan aloqa asosan poezdlar orqali amalga oshiriladi.

Bo‘ronli Edigey - romanning bosh qahramoni. U umrining ko‘p qismini shu yerda temiryo‘lchi sifatida o‘tkazdi. U o‘z hayotini o‘zini o‘rab turgan hayot haqiqati bilan bog‘lagan personaj sifatida har bir insonning farovonligi uchun kurashadi, o‘z taqdirini jamiyat uchun mehnat bilan chambarchas bog‘laydi. U o‘z harakatlari va atrofida sodir bo‘layotgan narsalar uchun javobgarlikni olishga tayyor.

Kazangap Edigeyning eng yaqin do‘sti. U o‘zining donoligi va uzoqni ko‘ra bilishi bilan xalq tomonidan boshqa obrazlardan ajralib turardi. Bu ikki qahramonni o‘xshash jihatlari avvalo ularning mehnatsevar inson ekanliklarida, ikkinchi jihatdan o‘xshashliklari esa yaqin-atrofdagilarga nisbatan mehr-oqibatlari, sadoqatlarida ko‘rishimiz mumkin.

¹ Ushbu roman rus tilida «И дольше века длится день» (Буранный полустанок) nomi bilan atalib, dastlab o‘zbek tiliga “Asrga tatigulik kun” deb tarjima qilingan. Oradan vaqt o‘tib romanning qirg‘iz tilidagi nashri “Кылым карытаар бир кун” nomi bilan chop etilgandan so‘ng uning o‘zbekcha nomi ham asliyatga muvofiq “Asrni qaritgan kun” deb o‘zgartirildi(A.Rashidov. Chingiz Aytmatov olami. - T.: O‘qituvchi, 2011. 168 b)

² Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimasi. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 3-b

O'xshashliklar	Edigey	Kazangap
Mehnatsevarlik	Sario'zak dashtlarida ishlaydigan odamning joni mingta bo'lishi kerak. Aks holda sho'ri quriydi. Dasht hududsiz, odam qum donasiday ko'rinadi bu yerda.... ³	Kazangap ham bu yerlarda qirq to'rt yil ishlab qo'ydi. Boshqalar yaxshi-yu, u yomon bo'lgani uchun emas, albatta. Bitta Kazangapni o'zini Edigey o'nta odamga alishmas edi... ⁴
Mehr-oqibat	“Borishing bilan O'spanni uyg'ot. Boshliq deb o'tirma, buning ahamiyati yo'q, o'lim oldida hamma bir. Kazangap o'lganini ayt. Bilib qo'ysin qirt to'rt yil bir joyda ishlagan odam o'lganini. Kazangap bu yerlarda ish boshlaganda O'span onasidan tug'ilmagan edi... ⁵ ”	“- Ko'rib turibman, Edigey, bu sen bajaradigan ish emas. Munaqa yumushlarga hali yaramaysan.... Hozircha yengilroq ishda ishlab, toza havoda yurib, xohlaganingcha qaymog'i olinmagan sut ichishing kerak.... Boshpanang bo'ladi, tayinli ishing bo'ladi. Nima ish zarur bo'lsa, hammasiga yordamlashamiz, ro'zg'oringni ham butlab olarsan” ⁶
Vijdon	Edigeyning dili zimiston bo'ldi. Yana qovoqlari solinib, ikki qoshining o'rtasidagi ajinlari bo'rtib chiqdi. Jonini qaqshatgan boyagi savollar boshini qotira boshladi: bu bolalar kimga o'xshadi ekan-a? Nima sababdan bunaqa bo'lib ketishdiki... ⁷	Buning nimasi yaxshi? – deb qosh-qovog'ini uyib oldi Kazangap. G'azabdan lablari dir-dir titrardi... Nega sen ularning ustidan kulyapsan? – bu odamlarning boshiga tushgan musibatku, axir... ⁸

Asardagi ikki obrazning o'xshash jihatlarini muallif qiyosan tasvirlar ekan, eng avvalo, insonning inson degan nomga munosib bo'lish tamoyilining ustuvorligi, har bir inson uchun g'oyat zarur va ahamiyatli ekanligini o'quvchiga bot-bot singdirishga intiladi.

Romanda biz tahlilga tortayotgan yana bir-biriga o'xshash va tipologik qatorni vujudga keltiruvchi ikki obraz bu bir Edigey, ikkinchisi, Raymali og'a. Bu ikki personajni bir-biri bilan bog'lab turuvchi, bir tipologik qatorni vujudga keltiruvchi tuyg'u – muhabbat tuyg'usidir. Adib Edigey qalbidagi Abutolibning bevasi bo'lgan Zarifaga bo'lgan sof va samimiy tuyg'ularini qirg'iz xalqining **sevgi va muhabbat** haqidagi rivoyatlari bilan boyitishga harakat qiladiki, bu orqali Edigey, rivoyat qahramoni bo'lgan Raymali og'a bilan bir oshiq tipologik qatorini vujudga keltiradi. Keksa oqin Raymali og'a va oshiq qiz Begimoy haqidagi muhabbat qissasi, roman syujeti bilan birlashib ketgan bo'lsada, aslida ushbu rivoyatning syujeti, obrazlari, voqea-hodisalar barchasi alohida olingan mustaqil asar, go'zal bir novella sifatida katta

³Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 18-b

⁴Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 19-b

⁵Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 15-b

⁶Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 87-b

⁷Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 45-b

⁸Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun”. Asil Rashidov tarjimai. T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 92-b

ahamiyatga ega.

References:

1. Chingiz Aytmatov. Arsni qaritgan kun". Asil Rashidov tarjimasi. T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2019.
2. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011. – 256 б;
3. Мирзаахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч.Айтматова. – Тошкент: "Фан", 1960;
4. Ғаниев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. 288 б.